

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining  
2024-yil II yarim yillik ISH REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan masalalar mavzusi</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Bajarish uchun mas’ullar</b>
<b>I. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalarni sifatli ijro etilishini ta’minlash</b>				
1.	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish	II yarim yillikda	<p>1. Muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun tayyorlangan statistika ma’lumotlarini Statistika dasturiga muvofiq tashqi foydalanuvchilarga belgilangan muddatlarda taqdim etish.</p> <p>2. Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini Statistika agentligi rasmiy saytida joylashtirish, statistika axborotnomalarini nashr qilish.</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi, Axborot xizmati, Statistika agentligi tarmoq boshqarmalari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalarda belgilangan topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarish	II yarim yillikda	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida keltirilgan topshiriqlarini Statistika agentligiga tegishli qismini bajarish.</p> <p>2. Topshiriqlar ijrosi yuzasidan monitoring olib borish.</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan majlislar bayonlarida belgilangan topshiriqlarni so‘zsiz va sifatli bajarish	II yarim yillikda	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida keltirilgan topshiriqlarini Statistika agentligiga tegishli qismini bajarish.</p> <p>2. Topshiriqlar ijrosi yuzasidan monitoring olib borish.</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
				Statistika agentligi boshqarmalari
4.	Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilishni yo'lga qo'yish	2024 yil avgust	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan dastur loyihasini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish va Statistika dasturi doirasida zarur statistika ma'lumotlarini taqdim etish	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi, Yuridik bo'limi
5.	Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ishsiz aholining aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish	2024-yil avgust	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga Statistika dasturi doirasida zarur statistika ma'lumotlarini taqdim etish	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi
6.	Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishini tahlil qilish	har oyda	Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Statistika dasturi doirasida zarur statistika ma'lumotlarini taqdim etish	A. Ikramov, Narxlar statistikasi boshqarmasi
7.	Ijtimoiy muhim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini doimiy monitoring qilish orqali narx o'sishi bo'yicha xavflarni tahlil qilish	har oyda	Markaziy bank hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Statistika dasturi doirasida zarur statistika ma'lumotlarini taqdim etish	A. Ikramov, Narxlar statistikasi boshqarmasi
8.	"Geografik ob'ektlarning klassifikatori"ni tasdiqlash bo'yicha	noyabr	Kadastr agenligi tomonidan ishlab chiqilgan "Geografik obyektlarning klassifikatori"ni tasdiqlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi kelib tushganda loyihani ko'rib chiqish va taklif hamda mulohazalarni kiritish	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
	normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash			boshqarmasi
9.	Ko'cha nomi, ko'chmas mulk obyekti raqami yozilgan lavhani o'rnatish qoida va me'yorlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash	noyabr	Kadastr agenligi tomonidan ishlab chiqilgan Ko'cha nomi, ko'chmas mulk obyekti raqami yozilgan lavhani o'rnatish qoida va me'yorlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi kelib tushganda loyihani ko'rib chiqish va taklif hamda mulohazalarni kiritish	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi
<b>II. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosining amalga oshirilishini maqsadli o'rganish</b>				
10.	"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta'minlash	II yarim yillikda	<p>1. Mahallalarda xonadonlarga raqam belgilari va ko'chalarga nom belgilarini o'rnatilganligi holatini o'rganib borish va aniqlangan kamchiliklarni mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan bartaraf etish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirib borish.</p> <p>2. "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi asosida aholini ro'yxatga olish natijalarini shakllantirish imkonini beruvchi STATA amaliy dasturida chiquvchi jadvallar shakllarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Respublika va mahalliy telekanallarda aholini ro'yxatga olishning mazmun-mohiyati va ahamiyatini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar tashkil etish.</p> <p>4. Respublika va mahalliy radiokanallarda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib beruvchi eshittirishlar tashkil etish.</p> <p>5. Respublika va mahalliy gazeta va jurnallarda aholini ro'yxatga olish masalalariga oid maqola va tezislar chop</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
			<p>ettirish.</p> <p>6. Oliy ta'lim muassasalari va maktablarda aholini ro'yxatga olish masalalariga bag'ishlangan seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish.</p> <p>7. Rasmiy veb-saytlarda aholini ro'yxatga olish masalalariga oid maqola va tezislar joylashtirib borish.</p>	
11.	<p>O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi faoliyati to'g'risida (PF-5655-son 2019-yil. 5-fevral)</p>	<p>2024 yil 9-dekabr</p> <p>13-dekabr</p>	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha hududiy komissiyalar tomonidan mahallalarda xonadonlarga raqam belgilari va ko'chalarga nom belgilarini o'rnatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi yuzasidan tahliliy axborot tayyorlash;</p> <p>2. Tayyorlangan axborotni Vazirlar Mahkamasining Rayosat yig'ilishi muhokamasiga kiritish.</p>	<p>A. Ikramov, Z. Ziyayev, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi</p>
12.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114 - son qarorining tegishli bndlari ijrosini ta'minlash</p>	<p>II yarim yillikda</p>	<p>1. Qarorda belgilangan vazifalarni bajarilishini ta'minlash.</p> <p>2. Belgilangan vazifalarni bajarilishini monitoring va nazorat qilish.</p> <p>3. Statistika agentligi Hay'at majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114 - son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi holatini muhokama qilib borish.</p>	<p>A. Ikramov, Z. Ziyayev, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi,</p>

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
				Statistika agentligi boshqarmalari
13.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyati tashkil etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoni loyihasini ishlab chiqish	iyul	"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoni loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kelishilishini hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlash	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Yuridik bo'lim
14.	Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish	II yarim yillikda	Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishning maqsad va vazifalari hamda mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida axborot tushuntirish ishlarini tashkil etish.	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni	Har yili 1-dekabrqa qadar  2024 yil iyul	1. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida hisobot turlarini maqbullashtirish.  2. "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kopleksining statistika organi bilan to'liq integratsiya	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Statistika agentligi tarmoq

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
	taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-8 son qarori ijrosini ta'minlash		qilinishini ta'minlash.	boshqarmalari
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-162-son qarori ijrosini ta'minlash	2024-yil davomida	<p>1. "Statistika" integrallashgan axborot tizimini davlat boshqaruvi organlarining axborot tizimlariga bosqichma-bosqich integratsiyalash.</p> <p>2. Statistika hisobotlarini "onlayn" rejimda taqdim etishning e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimiga sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llagan holda, taqdim etilayotgan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish.</p> <p>3. Telefon aloqasi yordamida intervyu o'tkazish (CATI - Computer Assisted Telephone Interviewing) orqali tanlanma statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayonlarini yanada takomillashtirish.</p>	Z. Ziyayev Raqamli texnologiyalar va interaktiv xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi, Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish boshqarmasi, Statistika agentligi tarmoq boshqarmalari
17.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796 son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning tegishli	II yarim yillikda	<p>1. Qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l xarita"sida belgilangan vazifalarni bajarilishini ta'minlash.</p> <p>2. Belgilangan vazifalarni bajarilishini monitoring va nazorat qilish.</p> <p>3. Statistika agentligi Hay'at majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 avgustdagi PQ-4796 son qarori bilan tasdiqlangan 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi holatini muhokama</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
	bandlari ijrosini ta'minlash		qilib borish.	Statistika agentligi boshqarmalari
18.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 83-son qarori ijrosini ta'minlash	II yarim yillikda	<p>1. Global indikatorlar tizimida xar yili kuzatiladigan muayyan o'zgarishlarni inobatga olgan xolda milliy BRM indikatorlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish (zaruriyatga ko'ra).</p> <p>2. Tegishli vazirlik va idoralardan shuningdek, Statistika agentligida mavjud BRMga oid ko'rsatkichlarni doimiy asosda to'plash va MBRM veb-portalida Statistika dasturiga muvofiq (<a href="http://www.nsdg.stat.uz">www.nsdg.stat.uz</a>) e'lon qilib borishga tayyorgarlik ko'rish.</p>	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari
19.	2024-yil uchun Statistika dasturining ijrosini monitoring qilish	har oyda	1. 2024-yil uchun Statistika dasturini amalga oshirilishini monitoring qilish.	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari
<b>III. 2024 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni muhim yo'nalishlarini amalga oshirishni kuzatib borish uchun statistik instrumentariyni rivojlantirish</b>				
20.	Xalqaro statistika amaliyoti va zamonaviy talablarga mos ravishda statistika yo'nalishlari bo'yicha uslubiy hujjatlarni takomillashtirish	tasdiqlangan ish rejasiga asosan	Xalqaro statistika amaliyotini o'rganish, 2024-yil uchun uslubiy hujjatlarni tayyorlash rejasiga asosan uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish.	A. Ikramov, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari
21.	Oliy Majlis	II yarim	1. Statistika agentligiga kelib tushgan normativ hujjatlar	A. Ikramov, Z. Ziyayev,

T/r	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Bajarish muddatlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish uchun mas'ullar
	Qonunchilik palatasiga qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va kiritishda, shuningdek, boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.	yillikda	loyihalarini ekspertizadan o'tkazish. 2. Normativ hujjatlarni asosiy ishlab chiquvchilari so'rovlariga asosan zarur statistika ma'lumotlarini taqdim etish.	Yuridik bo'lim Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari
22.	Statistika agentligi tizimida statistika faoliyatini tashkil etish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda kompleks va maqsadli o'rganish	grafik bo'yicha	1. Statistika agentligi tizimi faoliyatini tasdiqlangan reja-jadvalga asosan kompleks va maqsadli o'rganish. 2. Monitoring natijalarini Statistika agentligi Hay'at yig'ilishlarida muhokama qilish, aniqlangan muammolarni bartaraf qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari, hududiy statistika boshqarmalari
23.	Statistika agentligining 2024-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini muvofiqlashtirish.	II yarim yillikda	Ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini muvofiqlashtirish va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash.	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, Statistika agentligi boshqarmalari